

REALIYALARNI TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

Maxsuma Ikromova

Chirchik State Pedagogical University Master's Degree Student ikromovamaxsuma@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada realiya tushunchasining asl mohiyati, uning tilshunoslik sohasida o'rganishning ahamiyati va realiyalarni boshqa leksik birliklardan farqi ochib beriladi.

Kalit so'zlar : realiya, mentalitet, ekvivalent

Аннотация: В данной статье раскрывается истинная сущность понятия «реалия», важность его изучения в области лингвистики, а также отличие реалии от других лексических единиц.

Ключевые слова: реалия, менталитет, эквивалент

Annotation: This article reveals the true essence of the concept of reality, the importance of its study in the field of linguistics, and the difference between reality and other lexical units.

Keywords: realia, mentality, equivalent

KIRISH

Har bitta xalqni farqlovchi eng muhim xususiyat – bu o'sha xalqning tilidir. Aynan tilda xalqning madaniyati, tarixi va qadimiy an'analari, turmush tarzi, mentaliteti, geografik o'rni, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va hayot falsafasi o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xalq o'z dunyoqarashini, asosan o'z madaniy merosi bilan shakllangan dunyoqarashni o'z tili orqali ifodalaydi. Tilni millat madaniyatining ko'zgusi deyishimiz mumkin.

Binobarin, har bitta xalqning tilida boshqa xalqda uchramaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlarni realiyalar deb ataymiz. Shu o'rinda, realiya so'zining asl ma'nosi haqida to'xtalsak. Realija lotin tilidan olingan bo'lib, "moddiy", "haqiqiy narsalar" degan ma'noni bildiradi, ya'ni mavhum tushunchalardan farqli o'laroq borliqda mavjud bo'lgan narsalarnigina anglatadi.

Realiyalar muayyan bir xalqning o'z madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashiga tegishli so'zlar bo'lganligi sababli, ular turli madaniyat vakillari o'rtasida muloqotni amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi.

Globalashuv va faol xalqaro aloqa tufayli turli madaniyatlar va tillar bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'lganligi sababli bu masala, ayniqsa, hozirgi paytda dolzarbdir va aynan tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, realiyalarni chuqurroq tadqiq qilish ham dolzarb masaladir.

Tilshunoslikda realiyalarni chuqurroq tadqiq qilish va ularning milliy va tarixiy koloritini aks ettirish xususiyatlarini o'rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan. "Realija" atamasi haqidagi batafsil fikrlar 1930-yillarda bolgar tadqiqotchilari S. Vloxov va S. Florinning " Непереводимое в переводе " asarida to'liqroq yoritilgan. Ularning mulohazalariga ko'ra: "Realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlar, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni

ifodalovchi soʻz va soʻz birikmalari boʻlib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar"[1:8]. Haqiqatdan ham, realiyalar muayyan xalq hayoti va madaniyati bilan chambarchas bogʻliq va ularning boshqa oddiy soʻzlardan farqi – bu ularning milliy va davriy xususiyatga ega ekanligidadir. S.Vlaxov va S.Florin realiyalarni boshqa leksik-semantik guruh birliklaridan farqlab, uning xususiyatlarini tilshunoslik uchun muhim deb hisoblaydi. Rus tarjimashunosligida esa realiyalarni dastlab muayyan xalqning madaniyatga xos leksik birliklar sifatida 1941- yilda Andrey Fedorov kiritdi va ularni “realiya soʻzlar” deb atashni taklif qildi. A.V.Fedorovning fikriga koʻra: “ realiyalar - ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yoʻq boʻlgan soʻzlardir” [2:160]. Berilgan taʼrifda realiyalar faqat til birligi sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy hayot mahsuli sifatida yoritilgan. Bu taʼrif realiyalarning milliylik, tarixiylik va madaniy oʻziga xoslik kabi muhim belgilarini ochib beradi.

Shu sababli ushbu yondashuv tarjima jarayonida muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Rus mintaqashunosligining asoschilari E. M. Vereshchagin va V. G. Kostomarov oʻzlarining “Язык и культура” kitobida realiyaga quyidagicha taʼrif berishni taklif qilishadi: “ realiya - bu ekvivalenti boʻlmagan madaniy elementlar. Bunday reallikni bildiruvchi soʻzlar "ekvivalent boʻlmagan lugʻat" deb ataladi” [3: 27]. Ushbu fikrni izohlaydigan boʻlsak, realiyalarni tarjimada eng muammoli birliklar sifatida koʻrsatadi. Realiyalar boshqa tillarda toʻliq ekvivalenti mavjud emasligi sababli, realiyalarni tarjimada eng muammoli birliklar sifatida koʻrsatadi.

Shuning uchun bunday soʻzlar alohida yondashuv va maxsus tarjima usullarini talab qiladi. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, har qanday tarjima faqatgina ikki xorijiy tillarning oʻzinigina emas, balki ushbu tillarda soʻzlashuvchi turli madaniyat egalarining madaniy oʻziga xosligi va farqlari oʻrtasidagi toʻqnashuvni oʻz ichiga oladi. Shuning uchun ham har qanday tarjimonning vazifalaridan biri asl matnning oʻziga xos tafsilotlari va xususiyatlarini toʻgʻri yetkazishdir. Bularga tilning realliklari kiradi.

Mashhur tarjimon G.D.Tomaxin realiyani “faqat maʼlum millat va elatlarga xos boʻlgan moddiy madaniyat obʼyektlari, tarixiy faktlar, davlat institutlari, milliy va folklor qahramonlarining nomlari, mifologik mavjudotlarning nomlari” deb izohlab oʻtgan. [4:5]. G.D. Tomaxinning realiyaga bergan ushbu taʼrifi mazkur tushunchaning asosiy jihatlarini qamrab olgan boʻlsa-da, zamonaviy tarjimashunoslikda realiya faqat moddiy madaniyat yoki tarixiy nomlar bilangina cheklanmay, balki maʼnaviy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy hayotga oid birliklarni ham oʻz ichiga olishi taʼkidlanadi.

Realiyani tarjima qilish muammosini oʻrganayotgan mahalliy va xorijlik olimlar ularni belgilash uchun turli atamalardan foydalanadilar, masalan, ekvivalent boʻlmagan lugʻat, varvarizmlar, ekzotizmlar, etnografiyalar va boshqalar.

XULOSA

Realiya atamasini tadqiq qilish masalalariga bagʻishlangan adabiyotlarning tahlili shuni xulosa qilish imkonini beradiki, realiyalar til oʻrganish jarayonida oʻziga xos muhim ahamiyat kasb etadi va muayyan tilning lugʻat boyligi, frazeologik qatlami, milliy koloritini

hamda lingvomadaniy birliklarning mazmun-mohiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa o'rnida mashhur tarjimon A.L.Andresning so'zlaridan iqtibos keltirishimiz mumkin: "Har qanday san'atda bo'lgani kabi tarjima san'atida ham tayyor me'yorlar, qoidalar va yechimlarni bir marta va butunlay belgilab bo'lmaydi, tarjimon bizdan ma'lum bir tarixiy masofa bilan ajralib turgan asarni qayta ifodalashda bu masofani zamonaviy o'quvchiga qanday his ettirishi kerak, degan savolga yagona yechim bo'lishi mumkin emas" [5: 28].

Ushbu fikr tarjima jarayonining qat'iy qoidalarga bo'ysunmaydigan, ijodiy va kontekstga bog'liq hodisa ekanini asosli ravishda ko'rsatadi. Haqiqatan ham tarjimon tarixiy jihatdan bizdan uzoq bo'lgan asarni tarjima qilayotganda, zamonaviy o'quvchining idroki, til va madaniyat o'zgarishini hisobga olishi zarur. Shu sababli bu jarayonda yagona va o'zgarmas yechim bo'lishi mumkin emas, degan fikrni to'liq ma'qullash mumkin.

Yuqoridagi mashhur tilshunos olimlarning fikrlaridan xulosalaydigan bo'lsak, realiya - bu boshqa tilda so'zlashadigan odamlarning amaliy tajribasida mavjud bo'lmagan ob'ektlar, tushunchalar va vaziyatlarni bildiruvchi so'zlardir va ularni tilshunoslik sohasida tadqiq etish ancha yillardan beri davom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vlakhov S, Florin S. Neperevodimoe v perevode. – Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniia, 1980. – С. 310.
2. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. – Moscow : Высш. Шк, 1983. – С. 283.
3. Верещагин Е. М, Костомаров В. Г. Язык и культура. – Москва: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного, 1973. – С. 233.
4. Томахин Г. Д. Реалии – американизмы: Пособие по страноведению. – Москва: Высш. Шк, 1988. – С. 238.
5. Андрес А.Л. Дистанция времени и перевод. – МП: № 5, 1966. – С. 128.